

TARIXIY OBRAZ YARATISH VA ADABIY JARAYON

(Isajon Sulton ijopdi misolida)

Sarmonov Odilboy Muhammadiyevich

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annatatsiya: Ijodiy jarayonning op'ziga xos tamoyillarini tahlil qilish, ma'lum bir davr haqidagi qarashlarni tushunchalarni yaxlitlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda tarixiy shaxslar obrazini yaratish turli davrlarda o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tish imkonini bergan. Alisher Navoiy obrazini yaratilish jarayonida ham shunday xususiyatni kuzatamiz. Bu tushunchalar Isajon Sulton ijodi misolida asoslandi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, davr, muhit, tarixiy shaxs, talqin, qarashlar, yondoshuvlar, badiiylik, mahurat.

СОЗДАНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ОБРАЗА И

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ПРОЦЕСС

(На примере Исажона Султана)

Сармонов Одилбой Мухаммадиевич

Независимый исследователь Гулистанского

государственного университета

Аннотация: Анализ специфических принципов творческого процесса позволяет интегрировать взгляды и концепции на определенный период. В этом процессе создание образа исторических личностей позволило пройти через специфическую стадию развития в разные периоды. Мы наблюдаем аналогичную особенность в процессе создания образа Алишера Навои. Эти концепции были основаны на примере работы Исажона Султана.

Ключевые слова: творчество, эпоха, окружение, историческая личность, интерпретация, взгляды, подходы, мастерство, искусство.

**CREATION OF HISTORICAL IMAGE AND
LITERARY PROCESS
(On the example of Isajon Sultan)**

Sarmonov Odilboy Muhammadiyevich

Independent researcher at Gulistan State University

Abstract: Analysis of the specific principles of the creative process allows us to integrate views and concepts about a certain period. In this process, the creation of the image of historical figures made it possible to go through a specific stage of development in different periods. We observe a similar feature in the process of creating the image of Alisher Navoi. These concepts were based on the example of Isajon Sultan's work.

Keywords: creativity, era, environment, historical figure, interpretation, views, approaches, artistry, skill.

Jahon xalqlari ilmiy tafakkurida navoiyshunoslik alohida o'rin tutadi. Hukmdor shaxslar hayot yo'li va botiniy olami dunyo tarixchilari, elshunoslari, siyosatchilari, ayniqsa, yozuvchi va shoirlarining hamisha diqqat markazlarida bo'lib kelgan.

Badiiy adabiyotda Mir Alisher navoiy obrazini talqin etish bugunga kelib jahon adabiyotining muhim an'analaridan biriga aylanib bo'ldi. Jahon gumanitar ilmlari silsilasini kuzatar ekanmiz, nemis, ingliz, fransuz, rus, yapon, turk, xitoy olimlari va yozuvchi-shoirlari Alisher Navoiy shaxsiyati, badiiy ijod jarayoni, asarlarining mohiyatini anglashga tinimsiz harakat qilinmoqda. Qator tarixiy asarlar, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi risolalar, ilmiy-publitsistik yo'nalishdagi esselar, badiiy adabiyotning qator janrlarida mazkur ulug' shaxs va uning avlodlari

siymosi jonli aks ettirilgani fikrimizga dalildir.

Mustaqillik davriga kelib, O'zbekistonda ham Alisher Navoiy ijtimoiy faoliyati va ijodiy merosini o'rganish keng yo'lga qo'yildi. Sobiq ittifoq davridan davom etib kelgan biryoqlama, noxolis, yuzaki yondashuvlar o'rnini ilmiy xolislik va tarixiy dalillarning qiyosiy tahliliga asoslanuvchi kompleks tadqiqotlar egallay boshladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiy asarlar o'tgan asrning dastlabki o'n yilliklaridan yozila boshlangan. O'sha davrlarda vujudga kelgan ijtimoiy-tarixiy vaziyat, adabiy-madaniy muhit ajdodlar tarixi, adabiy, ma'naviy, ma'rifiy olamini o'rganish va targ'ib etish talabini kun tartibiga qo'ygan. Abdulla Qodiriy prozada, Abdurauf Fitrat dramaturgiyada, Abdulhamid Cho'lpon lirikada tarix mavzusini yuksak badiiyat maromiga yetkazib talqin qilganlar.

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlari ilk o'zbek tarixiy romanlari edi. Sho'rolar siyosatining ayovsiz oqibatlarini his etgan yozuvchi o'z romanlarida "tarixning eng kir va qora" davri sifatida "keyingi xon zamonlarini" tasvir etdi, milliy mustamlaka sabablarini saltanat inqirozida ko'rdi.

Abdurauf Fitratning "Abo Muslim", "Temur sag'anasi", "Abulfayzxon" pyesalari o'zbek tarixiy dramasining birinchi namunalari sifatida qayd etiladi. "Fitrat pyesalarining aksariyati o'tmish mavzularida yozilgan. Biroq ularning hammasi ham zamonaviy ruh bilan sug'orilgan. Fitrat dramaturgiyasining ma'rifiy-tarbiyaviy va estetik ahamiyati ham, avvalo, shunda", deb yoziladi bu haqda "XX asr o'zbek adabiyoti" kitobida [1, 111-bet]. Cho'lpon lirikasida esa millatning shonli o'tmishini fojiaiy, tushkun ruh bilan kuyladi. Shunday she'rlari uchun uni "xalq dushmani", "o'tmishni ideallashtiruvchi" unsur sifatida qatag'on qildilar.

Mazkur uch adabiy siymo adabiyotning uch adabiy turida tarixiy jihatdan barkamol asarlar ijod etgan, shu asnoda tarixiy mavzuni zamonaviylik bilan sintezlagan o'z davrining uch buyuk ijodkori edi. Ularning atrofida esa Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi o'nlab adiblar shu va shunga yaqin mavzularda

qalam tebratdilar. XX asr avvalida milliy ziyolilarimiz tomonidan boshlangan tarixiy talqin an'analari Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Abdulla Qahhorlar tomonidan sho'ro tuzumi bergan imkoniyat darajasida davom ettirildi. Keyinchalik adabiyot maydoniga Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Asqad Muxtorlar, oradan ko'p o'tmay 60-80-yillar avlodlari kirib keldi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Omon Muxtor, Rauf Parfi, Xayriddin Sultonov, Asad Dilmurod, Sirojiddin Sayyidlar asarlarida tarix mavzusi yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi. Mustaqillik esa ijodkorlarimiz uchun tarix sahnasidagi yangidan yangi imkoniyatlarni ochdi.

Adabiyotshunoslikda tarixiylik muammosi, tarixiy va zamonaviy poetik manbalarni talqin etishi nuqtayi nazaridan ikki yo'nalishda o'rganiladi. Birinchi yo'nalish, qadim tarixdagi og'zaki va yozma manbalarning poetik o'ziga xosligi, keyingi davr adabiyotiga ta'siri yuzasidan tadqiq etishga qaratiladi. Ikkinchi yo'nalishda esa tom ma'nodagi tarix – millatlar, saltanatlar, shaxslar tarixi adabiyotda qanday tamoyillar asosida badiiy aks ettirilgan, degan masala talqini yetakchilik qiladi. Bunda, asosan, tarixiylik va zamonaviylik sintezi, tarixiy talqinning muayyan asar yozilgan davr, ijtimoiy, ma'naviy hayoti, etik, estetik nuqtayi nazarlari bilan munosabati masalasiga urg'u beriladi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, har ikki yondashuv mohiyatida badiiy adabiyotni tarixiylik prinsiplariga ko'ra o'rganish tamoyili turadi.

Haqiqatan ham, Bobur va boburiylar obrazining hozirgi o'zbek adabiyotida talqin etilish usullari, shu asosda paydo bo'lgan poetik tamoyillarni qiyosiy tahlil etish dissertatsiyamiz metodologiyasining asosini tashkil etadi. Bu esa bevosita "ilgari yaratilgan asarlarning hozirgi hayotini o'rganish"dir. Ayni paytda, Bobur va boburiylar yashagan davrlar, ular hayoti va shaxsiyatining hozirgi o'zbek adabiyoti manbalarida tarixiylik tamoyiliga ko'ra aks ettirilishi muammosi talqin etilar ekan, ushbu tamoyillarning ikkinchisidan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Nega deganda biz tarixiy asarlar tadqiqotchisi sifatida ulardagi badiiy aks ettirish tamoyillarini o'rganish bilan bir qatorda, bu muammo yechimiga tarixiy-funksional yondashishimiz, faqat shu orqaligina qo'yilgan

masalani to'g'ri hal etishga erishishimiz mumkin.

Tarixiy davrlar, voqealar yoki shaxslar hayotini badiiy aks ettirishda bayon etilgan faktlar yoki qahramonlar faoliyati o'sha makon va zamondagi mantiqqa muvofiq kelmasa, bunday asar o'zining haqqoniylik, ya'ni tarixiylik sifatini yo'qotadi. Deylik, butun umrini saltanat tashvishlari va adabiyotga bag'ishlagan Bobur biron-bir tarixiy asarda o'zi ishg'ol etgan mamlakat iqtisodini barbod etgan, undagi qadim kutubxonalarga o't qo'ygan hukmdor qilib tasvirlansa, tarixiy mantiq buni darhol inkor etadi. Zotan, adabiyotda, xususan, tarixiy adabiyot o'tmishida bunday dalillar uchrab turadi. Adabiyotshunoslikdagi tarixiylik prinsipi degani tarixiy asarlardagi shu va shunga o'xshash holatlarni ham xolis nazar bilan o'rganish demakdir.

Ba'zan esa badiiy asar muallifining tarixiy faktlarga mutlaq bog'lanib qolish holatlari ham kuzatilishi mumkin. Bunday holatda tarixiy voqealarning batafsil bayon etilishi, tarixiy shaxs faoliyatining mayda-chuyda nuqtalarigacha tasvirlanishi kuzatiladi. Natijada badiiy tasvir etilayotgan tarixiy voqelik xronologik xarakter kasb etadi. Bu esa asar hajmining haddan tashqari cho'zilib ketishiga, o'quvchini zeriktiradigan darajadagi xronologiklashtirilgan tarixiy asar paydo bo'lishiga olib keladi. Syujet markazida harakatlanayotgan tarixiy shaxs esa jonsiz, jozibasiz chiqadi, aniqroq aytganda tarixiy shaxsdan badiiy obrazga aylanmay qoladi.

Ko'plab tarixiy qahramonlar (o'zbek adabiyotida Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Navoiy, Bobur va boburiylar, Mashrab singari tarixiy prototiplar) hayotiy faoliyatlari davomida o'z yurtlaridan tashqari talay o'zga mamlakatlar sarhadlari bo'ylab safar qiladilar, farzandlari, shogirdlari, a'yonlari, harbiy qo'shinlari hamrohligida tamomila begona odamlar, begona madaniyatlar bilan to'qnash keladilar. Mana shunday nuqtalarda madaniyatlar, ma'rifatlar, fikr-qarashlar, adabiyotlar kesishuvi sodir bo'ladi. Rus estetik-olimi Yuriy Borev o'zining "Estetika" nomli kitobida bunday tarixiy-tipologik jarayonlar, madaniyatlar kesishuvi uch ko'rinishda namoyon bo'lishini qayd etadi. Birinchi ko'rinish sifatida "turli xalqlar

turmushidagi tarixiy shart-sharoitlar o'xshashligi"ni, ikkinchi shakl deb "adabiy-madaniy taraqqiyotning spiralsimon dialektik harakatda" ekanini, uchinchi ko'rinish deb "adabiy-madaniy taraqqiyotning ko'plab turkumlardan iboratligi"ni ko'rsatadi [2, 222-223-betlar].

Demak, tarixiy asarlarda tasvir etilgan madaniyatlar kesishuvi aniq dialektik, ijtimoiy, tarixiy-xronologik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Tarixda bo'lib o'tgan bunday voqea va hodisalarni tasvir etayotgan ijodkor bularni e'tibordan soqit qilmasligi lozim. Darhaqiqat, Hindiston, Afg'oniston, Pokiston, Turkiya, Rossiya kabi qator o'zga mamlakatlar hududlarini ishg'ol etgan Amir Temur bilan bog'liq jahongashtalik voqealari ulkan ko'lamdagi madaniy sintezlashuv jarayonlarini vujudga keltirgan. Madaniyatlar o'rtasidagi kesishuv jarayonlari murakkab va sertarmoq kechgan. Bir madaniyatning ikkinchisidan ko'ra yuksakroqligi yoki tubanroqligi, ikki madaniyat aro muvozanat maydonga kelgan holatlar, bunda shaxs yoki shaxslarning o'rni va pozitsiyasi, ko'zga tashlangan kelishuv yoki ziddiyatlarni badiiy asarda jonli aks ettirish ijtimoiy-madaniy turmushning shunday azaliy qonuniyatlarini bilishni, his etishni talab qiladi.

Alisher Navoiy obrazi epik planda Musa Toshmuhammad o'g'li Oybek talqin etgan bo'lsa, oradan yarim asr o'tib Omon Muxtor izchillik bilan davom ettirdi. Keyinchalik esa Isajon Sulton bu an'anani yuksak darajaga ko'tardi. Adib talqindagi Alisher Navoiy obrazi ham tarix voqeligi asosida harakat qilsa-da, roman davomida ko'proq ijodkor sifatidagi faoliyati etakchilik qilganligini ham inkor etib bo'lmaydi.

"Darhaqiqat, roman janri voqelikni bir butunligicha badiiy tahlil etib, insonga ijtimoiy munosabatlar qonuniyatini, tarixiy o'zgarishlarni inson ruhiyati orqali namoyon etuvchi xususiyatni teran tahlil etishga qaratilgan"ligi bilan alohida ajralib turadi [3, 5-bet].

Ta'kidlanganidek, roman davr va uning barcha xususiyatlarini yaxlitlashtiradi, bu esa ijodkorning badiiy mahoratiga uzviy bog'liqligi bilan ham badiiyat mezonlarini o'zida mujassamlashtiradi, bu esa roman janriga xos

xususiyatdir. Badiiy asar tirik va harakatlanayotgan organizm hisoblanadi va bu organizm ma'lum bir shakl asnosida o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Shaklning yuzaga chiqishiga esa har doim ma'lum bir vositalar zarurdir. Zero, ma'lum vositalarsiz shaklning aniq qiyofasini ko'rish va anglash mumkin emas. Ayni shu jihatga ko'ra badiiy asarni to'liq shakllantiruvchi, undagi voqelik va syujetni, kompozitsiyani ko'z oldimizda gavdalantiruvchi vositalar mavjud.

Eposda muallif rassom singari voqelikni, obrazlarni, holatni, qiyofalarni aniq tasvirlab, chizib, turli vositalar asnosida ranglantirib bo'yab, o'quvchining ko'z o'ngida konkret holda namoyon qiladi. Ayni shu jarayon plastik tasvirni yuzaga keltiradi. Plastik tasvirni yuzaga keltirish uchun esa ma'lum bir vositalar – plastik elementlar nihoyatda zarur. Bu orqali epik asarlada malum bir syujet liniyasi tasavvurda konkret jonlanadi. Asarni o'qish jarayonida plastik elementlar, ya'ni plastik unsurlar o'quvchi ko'z o'ngida asta-sekinlik bilan izchil tarzda namoyon bo'ladi. muallif nuqtayi nazari, iste'dodidan kelib chiqqani holda har bir asarda plastik unsurlar turlichadir.

Shu jihatdan, iste'dodli adib Isajon Sultonning tarixy romanlarida o'ziga xos talqinlar, poetic ifodalar, kompozitsion yaxlitlik uchun asos bo'lganligini kuzqatish mumkin.

Adabiyotlar:

- 1.Mirzayev S.Z. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 420.
2. Қаранг: Боров Ю. Эстетика. – Москва: Издательство политической литературы, 1981. – С. 222-223.
- 3.Nasirov A. O'zbek romanchiligi. Darslik. – Samarqand, SamDU nashri, 2023. – 208 bet.